

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA O'YIN MASHQLARIDAN FOYDALANISH

Imomkulova Ozoda

Òzbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lism kafedrasini katta o'qituvchisi.

Rafikova Gulnoza

3-bosqich talabasi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lism tashkilotlarida ta'lism jarayonining olib borilishi haqida yoritilgan.

Ta'larning poydevori qo'yiladigan dastlabki bo'g'ini hisoblanmish, maktabgacha ta'linda bolani sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishi ta'minlanadi, bolada o'qishga intilish hissi uyg'onadi, uni muntazam ta'lism olishga tayyorgarlik jarayoni amalga oshiriladi.

MTMdada bolalar turmushini tashkil etishga katta e'tibor beriladi. Har bir yosh guruhida tashkil etilgan kun tartibi bolalarning uyquga, ovqatlanishga, faol mehnat qilishga bo'lgan talabini to'la qondirishi, bolalarda ijobjiy hissiy kayfiyatni saqlash, bolalar va kattalar o'rtasida to'g'ri munosabat o'rnatish uchun kerakli shart-sharoit yaratilishi kerak.

Bolalar tevarak-atrofdagi hayot va tabiat bilan tanishish, nutqni o'stirish va savod o'rganish, matematika, jismoniy madaniyat, tasviriy faoliyat, musiqa bo'yicha eng oddiy tasavvur va bilimlarni, malaka va ko'nikmalar sistemasini egallab oladilar. Bolalar egallab olishlari kerak bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalar MTM dasturida belgilab berilgan bo'lib, u bolalarning umumiy rivojlanishida va ularni maktab ta'limga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

Fiziologiya, gigiena, psixologiya, pedagogika sohasida olib borilgan ilmiy- tadqiqotlar natijasida MTMdada kichkintoylar hayotini tashkil etishning quyidagi printsiplari yuzaga keldi:

Har bir yosh guruxda bolalarni jamoachilik ruhda tarbiyalash va har bir bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydigan bir xil shart-sharoitlar yaratish. Bolalarni yosh guruxlariga taqsimlashda har bir guruhga faqat bir xil yoshdagagi bolalarni tanlash va shunga qarab ta'lism-tarbiya jarayonini tashkil etish. Bolalarning har xil faoliyat bilan shug'ullanishlari va bir-birlari bilan muloqotga kirisha olishlari uchun zarur bo'lgan moddiy muhitni yaratish. Buning uchun guruh xonasasi va maydonchani gigienik, pedagogik, estetik talablar darajasida kerakli asbob- anjomlar bilan ta' minlash. Bolalarning yoshiga mos kun tartibiga rioya qilish va uning barqarorligini taminlash. Bolalar shaxsini shakllantiradigan faoliyat turlarini (uyin. rnehnat, ta'lism) tashkil etish va bu faoliyatlar uchun kun tartibidan ma'lum vakt ajratish.

Didaktik o'yin - ta'lism beruvchi usul bo'lib, bu usul muayyan ta'limiyl maqsadlarga erishishga yani o'tilgan o'quv materiallarini aniqlashga, mustahkamlashga va uni chuqurlashtirishga qaratilgan bo'ladi. Har bir didaktik o'yinni o'tkazishda muayyan bir vazifa maqsad qilib olinadi. Masalan : doiraviy misollar o'yinida ikkinchi o'nlik ichida hisoblash malakalarini mustahkamlashdan iborat bo'lgan didaktik topshiriq qo'yiladi. Didaktik topshiriq darsga qo'yiladigan umumiy maqsadining bir qismini tashkil qiladi. Har bir didaktik o'yinning ham, har qanday o'yindagi singari qoidalari bo'ladi. O'sha qoidalarga amal qilinmasa o'yinning o'yin sifatidagi ahamiyatli binobarin o'yinning ta'lism tarbiyaviy va psixologik ahamiyati yo'qoladi. O'yin qoidalari o'yin topshirig'iga kiritiladi. O'yin topshirig'i - o'qituvchining

bolalarga o`yinning qanday o`ynalishini, kim g`olibligini aniqlashdan iborat.

Mashg`ulotlarda ta'lim berish didaktika printsiplari asosida bolalarning yosh va o`ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olib ma lum izchillikda olib boriladi, mazmuni sekin-asta murakkablashtirib boriladi. Natijada u rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi xususiyatga ega bo'ladi.Dasturda har bir yosh guruhida xafta davomida o'tkaziladigan mashg`ulotlar soni va har bir mashg`ulot qancha davom etishi belgilab qo'yilgan. Tarbiyachi mana shunga asoslanib, o'zining xafthalik mashg`ulotlar jadvalini tuzib oladi, bu ta'limning hamma bo'limlari bo'yicha belgilangan ta'lim-tarbiya ishlarini to'g'ri taqsimlash va bir xilda amalga oshirishga imkon yaratadi. Mashg`ulotlar jadvalini tuzishda quyidagi talablarga rioya qilish kerak:Dasturning hamma bo'limlari bo'yicha mashg`ulotlarni haftaga teng taqsimlash.Xaftaning birinchi va oxirgi kuniga osonroq mashg`ulotlar qo'yiladi.Xaftaning seshanba, chorshanba va payshanba kunlarida bolalardagi aqliy faoliyat tezlashadi, shuning uchun bu kunlarga murakkabroq ishlar rejalashtiriladi.Kun davomida birinchi bo'lib bolalardan aqliy zo'r berishni ko'proq talab etadigan, kam harakatli mashg`ulotlar rejalashtiriladi (tevarak-atrofdagi hayat va tabiat bilan tanishtirish, ona tili, matematika). Ikkinchi mashg`ulotga engilroqlari: tasviriy faoliyat, jismoniy tarbiya, musiqa mashg`uloti va shunga o'xshashlar rejalashtiriladi.

Xulosa qilib aytganda, bolaning xarakterini, tabiatini va dunyoqarashini belgilaydigan ma`naviy mezon va qarashlar-yaxshilik, ezzulik, olijanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir. Shunday ekan, biz oiladan boshlab bolalarga Vatan oldidagi burchi, ota-onha oldidagi vazifasi, odamiylik fazilatlarini o`rgatishni e'tiborga olsak, aynan shu davrda bola qalbida va ongida oiladagi va maktagacha ta'lim muassasasidagi muhit ta'sirida ma`naviyatning ilk kurtaklari namoyon bo`la boshlaydi.

Foydalaniman adabiyotlar.

1. Мардонов Э., Останов К., Имомкулова О. Теория и методика формирования математических представлений Самарканд-2021
2. Sodiqova Sh. A. Maktabgacha pedagogika. Tafakkur sarchashmalari. Т. 2013
3. Мардонов Э., Имомкулова О. Назария ва ташаккули мафхумҳои математики Самарканд-2022
4. Sirajiddinov, N., & Norkobilov, A. (2024). EXPLORING THE IMPACT OF INVOICING CURRENCY ON FOREIGN TRADE. Science and innovation, 3(A4), 166-174.
5. Sirajiddinov, N. (2020). Trade and Economic Cooperation of Uzbekistan with Central Asia Countries. International Relations: Politics, Economics, Law, 2019(34), 25-36.
6. Sirajiddinov, N. (2017). Currency regime of Uzbekistan: goals, consequences, ways to improve. International Relations: Politics, Economics, Law, 2017(1), 72-88.
7. Capolupo, R., & Jonung, L. (2008). The effects of the real exchange rate volatility and misalignments on foreign trade flows in Uzbekistan. Economics Discussion Paper, (2008-29).
8. Ibragimov, M., Ibragimov, R., & Sirajiddinov, N. (2009). Modeling and forecasting income tax revenue: The case of Uzbekistan. Economic Forecasting. Economic Issues Problems and Perspectives, 213-227.
9. Sirajiddinov, N. (2004). Main Stages of Economic Reforms in Uzbekistan. Centre for Economic Research.
10. Olimov, U., & Sirajiddinov, N. (2008). The effects of the real exchange rate volatility and misalignments on foreign trade flows in Uzbekistan.

11. Dilshod og, T. I., & Maratovna, T. L. (2023). DAVLAT IQTISODIYOTINI YANGI BOSQICHGA ERISHISHIDA "ISLOM BANK" INING AHAMIYATI. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(7), 13-17.
12. Абдужабборов, Н., & Ташпулатова, Л. (2024). O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida islom moliyasining o'rni. Узбекистан-стратегия 2030 с точки зрения молодых ученых: экономика, политика и право, 1(1), 205-208.
13. Ташпўлатова, Л. М. (2004). Минтақанинг ижтимоий-иқтисодий салоҳияти. Т.: ТДИУ.
14. Ташпулатова, Л., & Суюнова, Ф. (2022). РАҚАМЛИ ТУРИЗМ МАМЛАКАТНИНГ ИҚТИСОДИЙ ЎСИШИНИ ОШИРИШНИНГ АСОСИЙ ОМИЛИ СИФАТИДА. Iqtisodiyot va ta'l'm, 23(6), 437-441.
15. Бакоев, М. Т., Исмаилова, Г. С., Ташпулатова, Л. М., & Джураева, Р. А. (2022). Внедрение принципов эффективного государственного управления в интересах устойчивого развития в Узбекистане. Право и управление. XXI век, 17(4), 3-19.
16. United Nations Development Programme (Uzbekistan). (2007). Human Development Report: Uzbekistan. UNDP.
17. Asatullaeva, Z., Aghdam, R. F. Z., Ahmad, N., & Tashpulatova, L. (2021). The impact of foreign aid on economic development: A systematic literature review and content analysis of the top 50 most influential papers. Journal of International Development, 33(4), 717-751.
18. Азларова, А. (2020). РАҚАМЛИ ТРАНСФОРМАЦИЯ ШАРОИТИДА БАНКЛАРГА РАҚОБАТБАРДОШ МУТАХАССИС КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ. Архив научных исследований.
19. Sabirovna, G. G. (2022). Advantages And Disadvantages of Financial Globalization. Res Militaris, 12(4), 2159-2163.
20. Gulyamova, A., & Gulyamova, G. (2023). Use Of Innovative Services In The Development Of Retail Trade Banking System [Использование Инновационных Услуг В Развитии Розничной Торговли Банковской Системы]. Paradigms of management, economics and law, 58-67.
21. <http://ziyonet.uz/ru>